

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**



**“TASDIQLAYMAN”**  
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot  
instituti rektori

O.SH.Bazarov  
2024 yil

Ro'y xatga olindi № 05/04/052  
27 iyun 2024 yil

**“STRATEGIK BOSHQARUV”**

**FANINING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi: 400000-Biznes, boshqaruv va huquq**

**Ta'lim sohasi: 410000-Biznes va boshqaruv**

**Ta'lim yo'nalishi: 60411200 - Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi**

Qarshi 2024-yil

Fan/modul kodi BS4414	O'quv yili 2024-2025	Semestr 7	Kreditlar 5
Fan/modul turi Tanlov fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Biznes strategiyasi	60	90	150
<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Mamlakatimizda eng dolzarb masalalardan biri <b>biznes</b> strategiyasi va strategik boshqaruv jarayonidir. Ya'ni biznes strategiyasi mamlakatimiz xalq xo'jaligining asosiy bo'g'inlari bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini va xizmat ko'rsatish kompaniyalarini strategik boshqarish, buning natijasida jahon bozorida o'z mavqeiga ega bo'lish, raqobatchilikda yutib chiqish, mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishdir.</p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – talabalarda korxonalarda biznes strategiyasini tashkil etish bosqichlari, iqtisodiyotni erkinlashuvi sharoitida mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotishini ko'paytirishning eng zarur omillari va imkoniyatlarini aniqlay olish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning uslubiy asoslari, istiqbolli va tezkor usullarini turli tarmoqlar moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda qo'llash masalalari bo'yicha nazariy- amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – talabalarga ishlab chiqarish korxonalarida strategik boshqaruvni tashkil qilish, biznes strategiyasi fanining predmeti, vazifalari va mohiyati, kompaniya missiyasi va strategik qarashlarni belgilash, strategik boshqarish maqsadi va uning turlari, strategiya yaratishning vazifalari, tarmoqdagi umumiy vaziyat va undagi raqobatning tahlili, kompaniya holatini tahlil qilish, kompaniyaning raqobat strategiyasini belgilovchi omillar, marketing strategiyasini mavjud vaziyatga moslashtirish, diversiyalangan kompaniyalarning strategik tahlili haqida nazariy-amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.</p> <p><b>II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)</b> Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p><b>I-Mavzu: Biznes yuritishning iqtisodiy amaliyotidagi modellari.</b> Biznesni strategik boshqarish maqsadi. Biznesni strategik boshqarishning strukturasi. Strategik boshqaruvchi bo'lish. Professional va axloqiy ko'nikmalar. Tijorat ziyrakligi, tahlili, skeptizm va baholash kabi ko'nikmalarni shakllantirish.</p> <p><b>II-Mavzu: Biznes ijrosining vazifalari. Biznes ijrosi biznes modelini shakllantirish asosi sifatida.</b> Strategik boshqaruv, strategik rejalashtirish va uning bosqichlari. Shaxsiy va jamoaviy maqsadlar. Johnson, Scholes and Whittington strategik rejalashtirish modeli. Strategik tanlov. Strategik siljishning ahamiyati.</p> <p><b>III-Mavzu: Biznes ijrosini tavsiflash vositalari va metodologiyasi</b> Strategik analizda ichki va tashqi tahlil vositalari. Strategik analiz modellari -strategik imkoniyatlar, qiymat zanjiri, SWOT analiz, PESTEL, PORTER ning 5 kuchi va Porter olmosi nazariyalari</p>			

6.	<p><b>ASOSIY ADABIYOTLAR</b></p> <p>1. Dettmer H.W. Strategic Navigation: A Systems Approach to Business Strategy. Amer Society for Quality, 2003.-327 p. –ISBN: 0873896033, 9780873896030.</p> <p>2. Портних В. Стратегия бизнеса / Вьюпортних-М.: Дашков и Л, 2015. 2015.-276 с.</p> <p>3. Репин В.В., Елиферов В.Г. Процессный подход к управлению. Моделирование бизнес-процессов. Москва: РИД «Стандарт и качество», 2004.-408с</p> <p>4. Остервалдер Ф. Построение бизнес-моделей. Настольная книга стратега инноватора /А. Остервалдер И. Пенс.-М.:Алипаблишер, 2018. с.</p> <p>5. Суканова, О.А. Методология и инструментарий моделирования бизнес-процессов : учеб. пособие /О.А. Суканова. –СПб.: Университет ИТМО, 2015.- 100с.</p> <p>6. Ёўлошев Н.К., Юсупов С.Ш., Зоҳидов Ғ. Менеҗмент асослари ва бизнес режа. Дарслик. Тошкент, “Ўзбекистон файлауфлари миллий жамияти” наشريёти, 2018 й.-286 б.</p> <p>7. Nelly Ritson. Strategic management. 2 Edition. 2013. NelsonEducation Ltd</p> <p>8. Ковалев С., Ковалев В. Секреты успешных предприятий: бизнес процессы и организационная структура. 3-е издание. Практическое руководство, БИТЕК (Бизнес-инжиниринговне технологии). Москва, 2012 г. 511 с.</p> <p><b>QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR</b></p> <p>1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrda tasdiqlangan PF-158-sonli “O'zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni.</p> <p>2. Frank Rothoemel Strategic Management: Concepts (2nd edition) Mc GrawHill Education 9 January. 2014. USA. 528 p.</p> <p>3. Michael A. Hill. Strategic Management: Competitiveness and Globalization – Concepts and Cases. South - Western Collage Pub. 2014. USA. 896 p.</p> <p>4. Fred R.David. Strategic Management: A Competitive Advantage Approach, Concepts &amp; Cases. Pearson. 2014. USA. 696 p.</p> <p>5. Strategic Management concepts and cases. Arthur A. Thompson. Jr. A.J Strickland. 2012.. 778 p</p> <p><b>Axborot manbalari</b></p> <p>1. <a href="http://www.minceconomy.uz">www.minceconomy.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi</p> <p>2. <a href="http://www.mehnat.uz">www.mehnat.uz</a>. – O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi</p> <p>3. <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a>.- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi</p> <p>4. <a href="http://www.ima.uz">www.ima.uz</a>. - O'zbekiston Respublikasi Sanoat mulki muhofazasi</p> <p>5. <a href="http://www.nber.com">http://www.nber.com</a> – AQSh iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi sayti.</p> <p>6. <a href="http://www.webofscience.com">http://www.webofscience.com</a> – Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.</p> <p>7. <a href="http://www.scopus.com">http://www.scopus.com</a>. - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.</p> <p>8. <a href="http://www.elibrary.ru">http://www.elibrary.ru</a> – Rossiya ilmiy maqollar indeksi.</p> <p>9. <a href="http://www.uzreport.com">www.uzreport.com</a>.- Новости Узбекистана</p> <p>10. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a></p> <p>11. <a href="http://www.lcx.uz">www.lcx.uz</a></p>
7.	<b>Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi.</b>
8.	<b>Fan / Modul uchun mas'ullar</b> I.E.Tursunov – QarMIL, “Biznes va innovatsion menement” kafedrasi professori
9.	<b>Taqrizchilar:</b> X.S.Muxitdinov - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Biznes va innovatsion menement” kafedrasi professori, i.f.d. Sh.Sh.Fayziyeva -“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dosenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

<p>39 Mahsulotni reklama qilish monitoringining ahamiyati.</p> <p>40 Strategik boshqaruv tsikllari (bosqichlari) tavsifi.</p> <p>41 Sinergiya va tashkilot uchun sinergetik portfelning mohiyati va I. Ansoff matritsasining ahamiyati.</p> <p>42 Mahsulotning quyidagi ko'rsatkichlari ierarxiyasi darajasi: saqlash, sifat, raqobatbardoshlik, ishonchlilik va samaradorlik.</p> <p>43 Mahsulotdan foydalanishda iste'molchining xarajatlari.</p> <p>44 SWOT va PEST tahlillari. Xarakterli xususiyatlar va farqlar.</p> <p>45 Strategik boshqaruv tizimiga kirish va chiqish o'rtasidagi bog'liqlik va tovarlarning takror ishlab chiqarish tsiklining asosiy bosqichlari.</p>	<p><b>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan qo'shimcha ravishda loyiha ishi, esse, tezis yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsifiya etiladi.</b></p> <p><b>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><b>Fan bo'yicha talabalarining tasavvur, bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar</b></p> <p>Mazkur fan bo'yicha bakalavr:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- menejer,</li> <li>- menejerlik faoliyati;</li> <li>- strategik menajmentning usullari va tamoyillari;</li> <li>- xizmatlar sohasida va korxonalarda strategik boshqaruvni tashkil etishbosqichlari <i>to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>- strategiya yaratishning vazifalari,</li> <li>- strategiya yaratishda qo'llaniladigan amallar haqidagi <i>bilishi va ulardanfoydalanana olishi</i>;</li> <li>- korxonaga strategiyasini rejalashtira olishi;</li> <li>- marketing muhitini tahlil qila olishi;</li> <li>- strategik faoliyatni tashkil qilish haqidagi <i>malakalarga ega bo'lishi kerak</i>.</li> <li>- menajmentda tavakkalchilik;</li> <li>- xizmat ko'rsatish sohasining va korxonaning raqobatbardoshligini tahlil qilaolishi <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>;</li> </ul>
<p>4.</p>	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;</li> <li>• esse, tezis va maqolalar yozish;</li> <li>• vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;</li> <li>• jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;</li> <li>• muhokamalarda ishtirok etish;</li> <li>• kichik guruhlarda ishlash;</li> <li>• loyihalar ish bajarish;</li> <li>• mustaqil ishlarni bajarish;</li> <li>• taqdimot tayyorlash;</li> </ul>
<p>5.</p>	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishini topshirishi zarur.</p>

<p><b>IV-Mavzu: Biznes modellarning turlari. Biznes modellari tavsiflashga ilmiy yondashuvlar.</b></p> <p>Tashkilot faoliyati va pozitsiyasini baholash, moliyaviy hisobotni tahlil qilishda tahlil turlari. Miqdoriy, moliyaviy, benchmarking va texnikasini tushuntirish. Baholashda asosiy faoliyat boshqarish texnikasi, asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari va samaradorlikni oshirish texnikalari. Tahlil turlari, miqdoriy, moliyaviy, benchmarking va baldiri (Baldrige).</p> <p><b>V-Mavzu: Biznes modelini yaratish bosqichlari.</b></p> <p>Tashkilot boshqaruvida strategik tamlov jarayoni, amalga oshirish bosqichlarida tashkilot raqobatlashish strategiyasini tanlash. O'sish strategiyasi. Xarajatlar bo'yicha yetakchilik, farqlash, diqqat va strategik soat texnikalari. Biznesni rivojlantirishda bozorga kirish, raqobat ustunligini saqlab qolish, diversifikatsiyaning ahamiyati.</p> <p><b>VI-Mavzu: Boshqaruvning strategik tizimlari. Tanlangan strategiyani baholash.</b></p> <p>Biznes rivojlantirishda biznes kombinatsiyalari, strategik ittifoqlar va sheriklik Rivojlantirish metodlari va portfolio analizi.</p> <p><b>VII-Mavzu: Biznes modellari yaratish va tijoratda strategiyalarni qo'llash xususiyatlari.</b></p> <p>Korxonaga egalari va menejerlar o'rtasidagi munosabatlar. Tashkilot faoliyati ustidan egalik qilish va nazorat qilish bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish. Tashkiliy mulkchilikning turlari modellari (aksiyadorlik, jamiyatlar, oilaviy korxonalar va boshqa modellarning boshqaruviga ta'sirini muhokama qilish. Davlat sektorlari, xususiy sektorlar, nodavlat tashkilotlarini bir birlidan farqlash. Davlat sektorlaridagi demokratik nazorat va siyosiy ta'sir.</p> <p><b>VIII-Mavzu: Raqamli iqtisodiyotdagi biznes modellarning o'zgarishi.</b></p> <p>Boshqaruvda qoidalar va prinsiplarga asoslangan yondashuvlarni solishtirish. Tashkiliy mulkchilikning turlari modellarning boshqaruviga ta'sirini muhokama qilish. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti (OECD). Xalqaro korporativ boshqaruv tarmog'i (ICGN).</p> <p><b>IX-Mavzu: Innovasion biznes modellari yaratish.</b></p> <p>Samarali yetakchilikning ro'li. Strategik o'zgarishlarni boshqarishga mos bo'lgan yetakchilik uslubini maslahat berish. Yetakchilik va boshqaruv. Yetakchilik va madaniyat.</p> <p><b>X-Mavzu: Ko'p millatli va global raqobat strategiyalari</b></p> <p>Boshqaruvdagi muammolar ta'sir ko'rsatadigan tashkilot hayotidagi asosiy sohalar. Direktorlarning vazifalari. Direktorlar kengashining vazifalari. Direktorlarni mukofotlash. Kengashning risklarni boshqarish tizimlari uchun javobgarligi va ichki nazorat. Tashkilotning ijtimoiy mas'uliyati va axloqi. Tashkilot moliyaviy hisobotlarining o'rinliliigi va ishonchligi hamda tashqi audit. Ijrochi direktorlar. Ijrochi bo'lmagan direktorlar.</p> <p><b>XI-Mavzu: O'rti va kichik biznes sohasidagi strategik muqobilalar.</b></p> <p>Manfaatdor tomonlarga hisobot berish bo'yicha tashkiliy siyosatni belgilovchi omillar. Integratsiyalangan moliyaviy hisobotlar. Integratsiyalangan moliyaviy hisobotlarning ro'li. Institutsional investorlar. Direktorlar umumiy yig'ilishi (AGM and EGM). Eko-menajment va audit sxemalari (EMAS). ISO14000.</p> <p><b>XII-Mavzu: Boshlang'ich biznes modellari va ularning tanlovini belgilaydigan omillar</b></p> <p>Samarali ichki nazorat tizimlarining asosiy tarkibiy qismlari va xususiyatlarini baholash. Ichki nazorat va tavakkalchilikni boshqarish maqsadida yetarli axborot oqimi. Ichki nazorat tizimining kuchli va zaif tomonlarini baholash. Sog'om ichki nazorat muhitining ahamiyati va me'yoriy-huquqiy talablarga muvofiqligi. Nosog'lom nazorat muhiti oqibatlarini. Korxonadagi turli firibgarliklar va xatoliklarning oldini olishga yordam beradigan yangi ichki nazorat tizimlari yoki joriy qilingan ichki nazorat tizimiga o'zgartirishlar.</p> <p><b>XIII-Mavzu: Biznesni tarmoqli tashkil etish. Tijoratning global va mahalliy tendensiyalari</b></p> <p>Normativ va tashkiliy talablar asosida ichki audit funksiyasining zarurligi. Auditor mustaqilligining ahamiyati. Ichki yoki tashqi auditorlarning so'rovlari va so'rovlarga</p>
---

ishonchli javob. Samarali ichki audit xizmatiga ega bo'lish ahamiyati. Auditorlarning tavsiyalariga korxonaning munosabatini baholash.

**XIV-Mavzu: Biznes g'oyasi startapni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti sifatida**  
Tashkiliy strategiya va risklarni boshqarish strategiyasi o'rtasidagi bog'liqlik. Risklarni boshqarish tizimini yaratish. Tashkilot va tashkilot loyihalari ta'sir ko'rsatuvchi asosiy risklarni aniqlash va baholash. Risklarning dinamik tabiati. Tashkilotning hajmi, tuzilishi va rivojlanishiga nisbatan risklarning o'zgarishi.

**XV-Mavzu: Biznes strategiyalarni qo'llash xususiyatlari. Biznes jarayonlarning arxitekturasidagi o'zgarishlar**

Risklarni boshqaruvchi menejer. Risklarni boshqaruvchi menejering ro'li. Risklarni boshqaruvchi qo'mita. Risklarni boshqaruvchi qo'mitaning ro'li. Korxonaning riskka moyilligi. Risklarni kamaytirish va diversifikatsiya qilish. Risklarni aniqlashda va kuzatishda turli xaritalardan foydalanish (heat maps). Risklarni baholashda axborot manbalari. Risk strategiyasi va Ansoffning matritsasi.

### III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu. Biznes yuritishning iqtisodiy amaliyotdagi modellari.  
2-mavzu. Biznes ijrosining vazifalari. Biznes ijrosi biznes modelini shakllantirish asosi sifatida.

3-mavzu. Biznes ijrosini tavsiflash vositalari va metodologiyasi.

4-mavzu. Biznes modellarning turlari. Biznes modellarni tavsiflashga ilmiy yondashuvlar.

5-mavzu. Biznes modelini yaratish bosqichlari.

6-mavzu. Boshqaruvning strategik tizimlari. Tanlangan strategiyani baholash.

7-mavzu. Biznes modellarni yaratish va tijoratda strategiyalarni qo'llash hususiyatlari.

8-mavzu. Raqamli iqtisodiyotdagi biznes modellarning o'zgarishi.

9-mavzu. Innovatsion biznes modellarni yaratish. Biznes modellarni innovatsion o'zgartirish yo'nalishlari

10-mavzu. Ko'p millatli va global raqobat strategiyalari. Yirik biznesni rivojlantirish strategiyasini tanlash tamoyillari

11-mavzu. O'rti va kichik biznes sohasidagi strategik muqobilalar. Katta biznesni rivojlantirish strategiyalari

12-mavzu. Boshlang'ich biznes modellari va ularning tanlovini belgilaydigan omillar

13-mavzu. Biznesni tarmoqli tashkil etish. Tijoratning global va mahalliy tendensiyalari

14-mavzu. Biznes g'oyasi startapni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti sifatida

15-mavzu. Biznes strategiyalarni qo'llash xususiyatlari. Biznes jarayonlarning arxitekturasidagi o'zgarishlar. Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan

jithozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### Laboratoriya mashg'ulotlari

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

#### IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

**Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni**

**Mustaqil ta'limning maqsadi** - talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar, internet ma'lumotlari, o'quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar.

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabanning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar) ni mustaqil ravishda,

ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishga qaratiladi. Ushbu shakllarga quyidagilar tegishlidir:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;

- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

- talabalar o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;

- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish.

#### Tavsiya etilgan mustaqil ishlarni mavzularning mavzulari

1 Strategik maqsadlar, strategiyalar birligi.

2 Goli b strategiya mezonlari.

3 Muvofiq kelish darajasi.

4 Raqobat kurashida ustunlik.

5 Tarmoqda ustunlikka erishish shartlari

6 Biznes jarayonlarni tadqiq qilishning asosiy bosqichlari va ularning xususiyati.

7 Past xarajatlar strategiyasi

8 Oqilona xarajatlar strategiyasi

9 Tarmoqni ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar

10 Tarmoqdagi umumiy vaziyat va undagi raqobat darajasi

11 Kompaniyaning raqobat strategiyasini tanlash

12 Strategiyani yaratishning 3 vazifasi

13 Raqobatchilikni baholash usullari

14 Strategik rejalashtirishning mazmuni va usullari

15 Raqobatchilikning umumiy strategiyalari

16 Tarmoqda raqobatchilik kuchlari va ularning ta'siri

17 Strategiyani yaratishda va qayta ishlash jarayonida menejering vazifalari

18 Strategik boshqarish vazifalari

19 Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy hokimiyat organlarining kichik biznesi yanada rivojlantirishdagi rolini oshirish yullari

20 Yangi iqtisodiyotda strategik boshqaruvning roli.

21 Tashkilotning raqobatbardoshligi strategik rivojlanishning eng muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

22 Strategik rejalashtirish strategik boshqaruv elementi sifatida.

23 Tashkilotning tashqi muhitini tahlil qilish.

24 Tashkilotning ichki muhitini tahlil qilish.

25 Tashkilotning vazifasi, maqsadlari, strategik maqsadlari.

26 Shaxsiy biznes birliklari strategiyasini ishlab chiqish.

27 Strategik o'zgarishlarni boshqarish.

28 Strategik nazorat.

29 Raqobat afzalliklari va asosiy raqobat strategiyalari.

30 Funktsional quyi tizimlar strategiyasini ishlab chiqish.

31 Tashkilot strategiyasini ishlab chiqish.

32 Inson va tashkilotning o'zaro ta'siri.

33 Strategik menejmentda mahsulot tushunchasi.

34 Strategiyani bajarish va boshqarish.

35 Shaxs va guruh rivojlanish vektoridir.

36 Mahsulot dinamikasi strategik boshqaruvning moslashuvchan tomonidir.

37 Strategik menejmentda o'zaro ta'sir marketingi.

38 Kompaniyaning mahsulot strategiyasi.